


TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr)


2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 4789,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 24,0 % ga o‘ydi. Shu jumladan, eksport hajmi 1827,2 mln. AQSH dollarga (o‘shish sur‘ati 119,0 %) va import hajmi 2962,4 mln. AQSH dollariga (o‘shish sur‘ati 127,4 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 1135,2 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent viloyatining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari (2018 yilga nisbatan, %)



Shu bilan birga ta’kidlab o‘tish kerakki, 2019-yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 59,8 mln. AQSH dollariga ko‘proq eksport qilindi va 194,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Tovarlarni va xizmatlarni importi hajmi esa 318,7 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu esa noyabr oyiga nisbatan 98,5 mln. AQSH dollariga ko‘proqdir. Bu asosan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarga to‘g‘ri keldi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlarning ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyidan buyon deyarli o‘zgarishsiz bo‘lib, faqatgina ularning o‘rni almashib kelmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**


(mln. AQSH dollari)

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % |
|-------------------------|------------------------|---------|--------|--------------------------------------|
| Qozog‘iston | 897,8 | 237,1 | 660,7 | 18,7 |
| Turkiya | 809,9 | 678,9 | 131,0 | 16,9 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 803,6 | 206,6 | 597,0 | 16,8 |
| Rossiya Federatsiyasi | 802,7 | 219,6 | 583,1 | 16,8 |
| Janubiy Koreya | 187,8 | 8,6 | 179,2 | 3,9 |
| Germaniya | 127,1 | 2,3 | 124,7 | 2,7 |
| Buyuk Britaniya | 92,7 | 83,8 | 8,8 | 1,9 |
| B.A.A. | 92,1 | 90,2 | 1,9 | 1,9 |
| Tojikiston | 86,0 | 30,9 | 55,2 | 1,8 |
| Afg‘oniston | 70,0 | 69,6 | 0,4 | 1,5 |
| Ukraina | 60,7 | 34,0 | 26,6 | 1,3 |
| Qirg‘iziston | 58,5 | 40,9 | 17,6 | 1,2 |
| Belarussiya | 57,6 | 14,6 | 43,0 | 1,2 |
| Litva | 54,2 | 0,5 | 53,7 | 1,1 |
| Braziliya | 49,7 | 0,0 | 49,7 | 1,0 |
| Italiya | 49,2 | 4,3 | 44,9 | 1,0 |
| Meksika | 47,1 | 0,0 | 47,1 | 1,0 |
| Singapur | 39,0 | 11,5 | 27,5 | 0,8 |
| Eron | 34,3 | 11,7 | 22,6 | 0,7 |
| Shvetsariya | 32,7 | 20,9 | 11,9 | 0,7 |

Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,5 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2018 yilning shu davriga nisbatan 30,3 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 60,5 % ni, 2019-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,5 % ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 20,0 % ga oshdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko‘rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSH dollari)




EKSPORT




2019-yil yanvar-dekabr oylarida eksport hajmi 1827,2 mln. AQSH dollarga (19,0 % ga oshgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,2 % ulushga ega, bular asosan qora va rangli metallar (62,3 %), boshqa turdagi tovarlar (17,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (9,4 %), paxta tolasi (6,0 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (2,0%) shuningdek, mashina va uskunalar (2,5 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018-yil
yanvar-dekabr



2019-yil
yanvar-dekabr




Eksport tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| Eksport | 1827,2 | 119,0 | 100,0 | 589,5 | 158,3 | 100,0 | 1237,7 | 106,4 | 100,0 |
| Paxta tolasi | 110,2 | 185,2 | 6,0 | 0,2 | 18,1 | 0,04 | 110,0 | 188,8 | 8,9 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 171,3 | 160,6 | 9,4 | 128,5 | 198,6 | 21,8 | 42,8 | 102,1 | 3,5 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 37,1 | 93,4 | 2,0 | 25,9 | 132,5 | 4,4 | 11,2 | 55,6 | 0,9 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,00 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Qora va rangli metallar | 1138,5 | 105,6 | 62,3 | 210,1 | 167,7 | 35,6 | 928,4 | 97,4 | 75,0 |
| Mashina va asbob -uskunalar | 46,4 | 181,7 | 2,5 | 20,8 | 2,8m | 3,5 | 25,6 | 141,0 | 2,1 |
| Xizmatlar | 13,8 | 85,8 | 0,8 | 3,0 | 92,5 | 0,5 | 10,8 | 84,2 | 0,9 |
| Boshqalar | 309,9 | 148,1 | 17,0 | 201,0 | 133,4 | 34,1 | 108,9 | 186,0 | 8,8 |

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2019 yilning yanvar-dekabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari yanvar oyida kuzatilgan. Bu asosan qora va rangli metallar va boshqa turdagi tovarlarga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar eksportining o‘shish sur‘atlari dinamikasi (2018 yilga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o‘shish sur‘atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning dekabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 44,6 % ga ko‘paygan.


Xizmatlar eksporti hajmi 13,8 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,8 % ini tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 14,2 % ga kamaygan.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.


Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2019-yilning dekabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi noyabr oyiga nisbatan 59,8 mln. AQSH dollariga ko‘p eksport qilindi va 194,0 mln. AQSH dollarini, shuningdek, xizmatlar eksporti esa 0,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi

(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



ViLOYAT eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (2019-yil yanvar-dekabr, %)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Turkiya va Qozog‘iston davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 50,1 % ini tashkil qiladi. Turkiya va Qozog‘iston davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 166,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 138,0 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 2,1 martaga ko'p). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 86,1 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 60,7 mln. AQSH dollariga yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 40,5 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 47,1 ming tonna meva va rezavorlar 46,1 mln. AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi 2018 yilning mos davriga nisbatan 18,9 ming tonnaga ko'proqdir (o'sish sur'ati – 155,2 %).

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar-dekabr, 2019 y.)




Hukumatimiz tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 106,8 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

IMPORT




2019 yilning yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2962,4 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 127,4 %) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (34,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari (15,4 %), qora va rangli metallar (15,3 %) hamda boshqa tovarlar (23,1 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSH dollari)

2018-yil
yanvar-dekabr



2019-yil
yanvar-dekabr




Import tarkibi

| | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------------|--------------------------|---------------------------|-------------------------|--------------------------|---------------------------|
| | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSH doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| Import | 2962,4 | 127,4 | 100,0 | 1400,1 | 121,2 | 100,0 | 1562,3 | 133,4 | 100,0 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 455,1 | 2,3m | 15,4 | 273,6 | 2,3m | 19,5 | 181,5 | 2,3m | 11,6 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 260,3 | 159,8 | 8,8 | 67,3 | 180,5 | 4,8 | 193,0 | 153,6 | 12,4 |
| Energiya manbaalari va neft mahsulotlari | 35,2 | 78,0 | 1,2 | 33,6 | 76,9 | 2,4 | 1,6 | 110,8 | 0,1 |
| Qora va rangli metallar | 453,1 | 84,1 | 15,3 | 336,1 | 89,6 | 24,0 | 117,0 | 71,3 | 7,5 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 1032,3 | 109,5 | 34,8 | 136,9 | 51,1 | 9,8 | 895,4 | 132,6 | 57,3 |
| Xizmatlar | 41,1 | 192,2 | 1,4 | 12,4 | 178,3 | 0,9 | 28,7 | 198,9 | 1,8 |
| Boshqalar | 685,3 | 165,1 | 23,1 | 540,2 | 176,9 | 38,6 | 145,1 | 132,2 | 9,3 |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, 2019 yilning yanvar-dekabr oylari davomida yuqori o'sish sur'ati yanvar oyida kuzatilgan.

Tovarlar va xizmatlar importining o‘shish sur‘atlari dinamikasi (2018 yilga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o‘shish sur‘atlarining tahliliga asosan, 2019-yilning dekabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar noyabr oyiga nisbatan 44,7 % ga ko‘paygan.

Xizmatlar importi hajmi 41,1 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,4 % ini tashkil etdi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 92,2 % ga ko‘paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, komputer va axborot xizmatlaridan iborat bo‘ldi.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi

(oylar kesimida, mln. AQSH dollari)



Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(2019-yil yanvar-dekabr, %)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar dekabr oyida noyabr oyiga nisbatan 98,5 mln. AQSH dollariga ko'p import qilindi va 318,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning eksport-importi (2019-yil yanvar - dekabr holatiga)

| | Eksport- import qilgan korxonalar soni | mln. AQSH doll. | O'tgan yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida |
|----------------|---|----------------------------|--|
| Eksport | 141 | 246,7 | 73,5 |
| Import | 434 | 763,6 | 116,4 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatga 90 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Turkiya va Germaniya hamkor davlatlarining jami import hajmi 2 275,8 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 76,8 % ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari hamda boshqa tovarlar viloyatimizga olib kirilayotganligini ko'rish mumkin.

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi, milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**